

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
La universidad de las Lenguas Mundiales**

O.Xalillayev, G'.Botirov

ESPAÑOL

**Jadallashtirilgan kurs.
O'quv qo'llanma**

Tashkent 2011

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| Soʻz boshi | 6 |
| Kirish..... | 8 |
| Talaffuz (Fonetika)..... | 8 |
| Urgʻu..... | 9 |
| Unli tovushlarning talaffuz etilishi..... | 9 |
| Undosh tovushlarning talaffuz etilishi..... | 9 |
| Talaffuz qilishning oʻziga xos xususiyatlari..... | 9 |
| Urgʻu belgilari va punktuatsiya | 9 |
| Oʻxshash talaffuzlar..... | 10 |
| Ispan alifbosi..... | 10 |
| I bob | |
| Artikllarning ishlatilishi..... | 11 |
| Ot..... | 11 |
| Otlarning koʻplik shakli..... | 12 |
| Kishilik olmoshlari..... | 13 |
| Murojaat etish formalari..... | 14 |
| “Tener” feʻli..... | 14 |
| Inkor formalari..... | 14 |
| Soʻroq gaplar..... | 14 |
| “Tener” feʻlining frazeologik birikmalardagi oʻrni..... | 15 |
| Dialoglar..... | 16 |
| Qoʻshimcha matn. “Los tres viejitos”..... | 17 |
| II bob | |
| Artikllarning turlanishi..... | 18 |
| Predloglar..... | 18 |
| Sifat..... | 18 |
| “Ser” va “Estar” feʻllari..... | 20 |
| “Ser” feʻlining ishlatilishi..... | 20 |
| “Estar” feʻlining ishlatilishi..... | 20 |
| Dialoglar..... | 22 |
| Qoʻshimcha matn. El sabio y el rey..... | 22 |
| III bob | |
| Koʻrsatish sifati..... | 23 |
| Koʻrsatish olmoshi..... | 24 |
| Toʻgʻri feʻllar..... | 25 |
| Hozirgi zamon sifatdoshi..... | 26 |
| Soʻroq olmoshlari..... | 27 |
| Nisbiy olmoshlar..... | 27 |

| | |
|---|----|
| Dialog..... | 29 |
| Qo'shimcha matn. Las cuatro velas..... | 30 |
| IV bob | |
| Egalik sifatlari..... | 31 |
| Egalik olmoshlari..... | 32 |
| Qo'shimcha matn. El árbol de las manzanas..... | 33 |
| Sanoq sonlar (miqdor)..... | 34 |
| Tartib sonlar..... | 35 |
| Vaqt..... | 36 |
| Hafta kunlari..... | 37 |
| Oylar..... | 37 |
| Yil fasllari..... | 37 |
| Sanalar..... | 38 |
| Dialog..... | 38 |
| Qo'shimcha matn. El anillo del rey..... | 39 |
| V bob | |
| "Ir" fe'li..... | 41 |
| O'tgan zamon sifatdoshi..... | 42 |
| Preterito Perfecto compuesto. Tugallangan o'tgan zamon..... | 42 |
| "Hay" yordamchi fe'li..... | 42 |
| To'g'ri murojaat "a" predlogi..... | 43 |
| Kishilik olmoshlari to'ldiruvchi rolida..... | 44 |
| O'rin-joy olmoshlarining ishlatilishi..... | 45 |
| Buyruq mayli..... | 46 |
| Dialoglar..... | 48 |
| Qo'shimcha matn. Amor de Madre..... | 49 |
| VI bob | |
| So'roq so'zlar..... | 51 |
| O'zagi o'zgaruvchi fe'llar..... | 51 |
| O'zlik fe'li..... | 51 |
| Ikki tomonning bir-biriga bo'lgan shakli..... | 52 |
| Kishilik olmoshlarining predloglar bilan ishlatilishi..... | 53 |
| I-shaxs hozirgi zamon birlikdagi noto'g'ri fe'llar..... | 54 |
| "Hacer" fe'lini idiomatik iboralarda qo'llanilishi..... | 54 |
| Shaxssiz fe'llar..... | 55 |
| "Gustar" fe'li..... | 55 |
| "Querer" (ie) fe'li..... | 56 |
| Dialog..... | 57 |
| Qo'shimcha matn. El agua que quería ser fuego..... | 58 |

VII bob

| | |
|---|----|
| Tugallanmagan o'tgan zamon..... | 59 |
| Tugallangan o'tgan zamon..... | 60 |
| Inkor so'zlar..... | 61 |
| Ravish..... | 63 |
| Sifat va ravishlarning qiyosiy darajasi..... | 62 |
| Sifatlarning qisqartma qiyosiy darajasi..... | 63 |
| Ravishlarning qisqartma qiyosiy darajasi..... | 64 |
| Otlarni qiyoslash..... | 64 |
| Dialog..... | 66 |
| Qo'shimcha matn. Se venden perritos..... | 67 |

VIII bob

| | |
|---|----|
| Sifatlarning qisqa formalari..... | 69 |
| Sifatlarning gapdagi o'rni..... | 69 |
| 3 ta noto'g'ri fe'llarning hozirgi zamondagi ko'rinishi..... | 71 |
| Kelasi zamon..... | 71 |
| Kelasi zamon fe'llarining noaniq shakli..... | 71 |
| Shart mayli..... | 72 |
| Shart maylining noaniq shakli..... | 72 |
| Kelasi zamon va shart maylini ishlatish uchun boshqa holatlar..... | 72 |
| Fe'llarni predloglar bilan ishlatilishi..... | 73 |
| "Llevar" va "Hacer" fe'llarini idiomatik iboralarda ishlatilishi..... | 74 |
| Dialog..... | 75 |
| Qo'shimcha matn. Jardín y Jericó..... | 76 |

IX bob

| | |
|--|----|
| Aniq o'tgan zamon..... | 78 |
| Aniq o'tgan zamondagi noto'g'ri fe'llar..... | 78 |
| "Ser" va "Ir" fe'llarining aniq o'tgan zamoni..... | 76 |
| "Dar" fe'li aniq o'tgan zamonda..... | 79 |
| Aniq o'tgan zamonda yozilishi o'zgaradigan fe'llar..... | 79 |
| Aniq o'tgan zamon va tugallanmagan o'tgan zamoni taqqoslash..... | 80 |
| 2 ta "bilmoq" fe'li..... | 82 |
| Sifatlarning orttirma darajasi..... | 82 |
| Ravishlarning orttirma darajasi..... | 83 |
| Sifat va ravishlarning mutloq (absolyut) orttirma darajasi..... | 83 |
| Qo'shimcha matn. ¡Mal character!..... | 84 |
| Sredniy rod artikli "lo"..... | 84 |
| Aniq va noaniq artikllarning ishlatilishi..... | 84 |
| Dialog..... | 87 |

| | |
|---|-----|
| Qoʻshimcha matn. Señal de vida..... | 88 |
| X bob | |
| “Por” va “Para”..... | 90 |
| Feʼllardan soʻng infinitivning ishlatilishi..... | 94 |
| Dialog..... | 98 |
| Qoʻshimcha matn. Breve recordación de Guillermo Ángel González..... | 99 |
| XI bob | |
| “Deber” feʼlining ishlatilishi..... | 101 |
| “Saber” va “poder” feʼllari..... | 101 |
| Hozirgi zamon maqsad mayli (feʼli)..... | 102 |
| Oʻtgan zamon maqsad mayli (feʼli)..... | 103 |
| Maqsad maylining (feʼlini) ishlatilishi..... | 103 |
| “Seguir” feʼlining ishlatilishi..... | 106 |
| “Valer” feʼlining ishlatilishi..... | 106 |
| Dialog..... | 108 |
| Qoʻshimcha matn..... | 109 |
| XII bob | |
| Feʼllarni predlog bilan ishlatilishi..... | 111 |
| “Al” infinitiv bilan ishlatilishi..... | 113 |
| Dialog..... | 115 |
| Qoʻshimcha matn. La tierra éramos nosotros..... | 116 |
| XIII bob | |
| Baʼzi muhim feʼllar..... | 117 |
| “mas” va “menos”..... | 118 |
| “tan” va “tal”..... | 119 |
| “pero” va “sino”..... | 119 |
| Predloglar..... | 120 |
| “Kattalashtiruvchi” va “kichraytiruvchi” qoʻshimchalar..... | 122 |
| Dialog..... | 123 |
| Qoʻshimcha matn. España: Una primera impresion..... | 125 |
| XIV bob | |
| Oʻqish uchun matnlar | |
| España: Historia La Prehistoria..... | 126 |
| España: Fiestas y Tradiciones..... | 127 |
| América del Sur..... | 135 |
| Las siete maravillas del mundo..... | 137 |
| Bujara..... | 143 |
| XV bob | |
| ¿Por qué se dice...?..... | 144 |
| Proverbios..... | 151 |
| Textos foneticos..... | 153 |
| Ispancha – oʻzbekcha lugʻat..... | 162 |

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimiz istiqloqlga erishib, dunyo hamjamiyati tomonidan tan olindi. Bugun O‘zbekiston jahonning rivojlangan davlatlari bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni yanada rivojlantirish yo‘lidan bormoqda. Davlatlararo munosabatlarning kengayishida xorijiy tilni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ispan tili dunyoda keng tarqalgan tillardan biri hisoblanadi. Bu til o‘zining jozibadorligi va ravonligi bilan ko‘pgina tillardan ajralib turadi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan akademik litsey o‘quvchilari va tilni mustaqil o‘rganuvchilar hamda til o‘qitish kurslarining tinglovchilari uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanmada ispan tili grammatikasi hamda fonetik tovushlar tizimi va ularning talaffuziga alohida ahamiyat berilgan.

O‘quv qo‘llanmaning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unga kiritilgan matnlar audio-kassetaga ham yozilgan. Bu esa Sizlarga ispan tilini oson hamda uning tovushlarini va ohangini osonroq o‘zlashtirishingizga, qayd etilgan tilda tez va ravon gaplashishga o‘z hissasini qo‘shadi. Boblarga kiritilgan mashqlar interfaol yondashuvga asoslangan bo‘lib, nutq malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Xorijiy tilni o‘rganuvchilar tilning nafaqat so‘zlari, grammatik tuzilishi va fonetik tizimini, balki ushbu tilda gaplashuvchi millatning urf-odatları, tarixi, adabiyoti, madaniyatidan ham boxabar bo‘lishlari lozim. Shuni hisobga olib, madaniyatlararo muloqotga oid materiallarga ham yetarli o‘rin berilgan.

Mualliflar.

Ushbu o'quv qo'llanma xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan akademik litsey o'quvchilari va ispan tilini mustaqil o'rganuvchilar hamda til o'qitish kurslarining tinglovchilari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada asosiy grammatik qoidalar, fe'l konstruksiyalari, shaxssiz fe'llarning qo'llanilishi, zamonlarning ishlatilishi, fikrlashga undovchi mashq va matnlar, hikmatli so'zlar hamda aqlni charxlovchi turli bosh qotirmalar o'rin olgan. Bundan tashqari matnlarni ovozlashtirilgan audio CD disklar orqali tinglashingiz mumkin.

Это учебное пособие предназначено для учащихся академических лицеев, специализированных для изучения иностранных языков, а также для слушателей курсов изучающих испанский язык. В учебном пособии даны основные грамматические правила, глагольные конструкции, использование безличных глаголов и их времен, упражнения и тексты способствующие к размышлению, кроссворды и мудрые изречения обостряющие ум. Кроме того, к книге прилагается озвученных CD диски в котором записаны тексты.

Esté manual está destinado al uso de los alumnos liceos especializadas, alumnos que quieren aprender el español independiente y para los cursos que estudian el español. En el manual estan incluidos reglas gramaticales, construcciones verbales, el uso de los verbos, el uso de los tiempos, los proverbios y ejercicios recrudesidos. Además de en el manual los alumnos pueden escuchar los textos grabados en el CD.

Kirish

Talaffuz

Bobni o'rganishga o'tishdan oldin pastda berilgan talaffuz qoidalarini o'qib chiqing. Siz bunda har bir qoidani yoddan bilishingiz shart emas, siz ularga vaqti – vaqti bilan murojaat etasiz. Ispan tili juda jarangdor va siz asosiy tovushlarni o'rganib olsangiz unda siz har qanday ispancha so'zni o'qishingiz mumkin. Biz sizga ispancha so'zlarni e'tibor bilan aniq talaffuz qilishni tavsiya etamiz.

Urg'u

Ispan tilida so'zlardagi urg'ular quyidagi qoidalarga bo'ysunadi:

1. Unli tovushlar va *n* yoki *s* tovushlari bilan tugagan so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'indan oldingi bo'g'inga tushadi: *examen*, *flores*, *hombre*, *cigarillo*
2. *N* yoki *s* undosh tovushlaridan tashqari boshqa so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi: *papel*, *ciudad*, *mujer*, *capital*
3. Yuqoridagi qoidalarga bo'ysunmaydigan so'zlarda urg'u belgisi jarangdor bo'g'inga tushadi: *árbol*, *lámpara*, *estación*, *inglés*, *música*.
4. Yozilishi bir xil, lekin ma'nolari har xil bo'lgan so'zlarni farqlash uchun urg'u belgisi qo'yiladi: *el* (aniq artikl) *él* (u); *si* (agar) *sí* (ha); *mi* (mening) *mí* (meni, menga); *mas* (lekin) *más* (ko'proq)
5. *A*, *e*, *o* – unilari "kuchli", *i*, *u* – unilari esa "kuchsiz". Qachonki 2 ta kuchli unli birga kelsa har ikkisi alohida talaffuz qilinadi: *paella*, *teatro*, *poeta*

Agar so'zda 2 ta kuchsiz unilar yonma – yon kelsa, urg'u ularning ikkinchisiga tushadi: *cujda*, *viuda*

Agar so'zda kuchli va kuchsiz unli birga kelsa va kuchsiz unlida urg'u bo'lmasa, urg'u har doim kuchli unliga tushadi: *aire*, *jaula*, *oído*, *aún*.

Unilarni talaffuz qilish

Ispan tilida 5 ta unli tovush mavjud: *a*, *e*, *i*, *o*, *u*. har bitta unlida faqat bitta tovush bo'ladi, odatda *u* qisqaroq bo'ladi. Unli tovush agar *u* jarangdor bo'lmasa yoki undoshdan keyin kelmasa *u* qisqarib ketadi.

a – "a" kabi o'qiladi. *Al* (ga), *la* – aniq artikl, *casa* – uy

e – "e" kabi o'qiladi. *Me* – menga, *meni*; *de* – dan; *le* – unga

i – "i" kabi o'qiladi. *Mi* – mening, *prima* – birinchi

o – "o" kabi o'qiladi. *Lo* – aniq artikl; *no* – yo'q; *gato* – mushuk

u – "u" kabi o'qiladi. *Tu* – sening, *su* – ularning, *uno* – bitta

Undoshlarni talaffuz qilish

Pastda ispan tilida undosh tovushlarning murakkab talaffuz etilishi keltirilgan:

z – ispan tiliga oid, tishlar orasidagi "sz" tovush. *Voz* – ovoz, *luz* – chiroq, *paz* – tinchlik, *vez* – marta, *zapato* – botinka.

j – tomoqdagi yumshoq "h" tovushiga yaqin. *Ojo* – ko'z, *jugar* – o'ynamoq, *juzgar* – sudlanmoq, *caja* – kassa.

ch – yumshoq "ch" tovushiga yaqin. *Muchacha* – qizcha.

c – e va i dan oldin kelsa “sz” bo’lib o’qiladi. Cena – kechki ovqat, cinco – besh, once – o’n bir.

g – e hamda i dan oldin kelsa “j” kabi “h” o’qiladi. Coger – olmoq, gigante – ulkan odam.

g – boshqa tovushlardan oldin kuchli “g” o’qiladi. Gato – mushuk.

gu – i va e dan oldin kelganda “g” kabi o’qiladi. Qolgan hollarda yumshoq talaffuz etiladi. Guerra - urush

h – talaffuz etilmaydi. Hijo – o’g’il, hablar – gapirmoq.

ll – odatda “y” yumshoq talaffuz qilinadi. Ba’zi shevalarda “l” deb eshitiladi. Lllamar – chaqirmoq.

ñ – burundan o’tuvchi “ny” tovushi. Niño – bola, señor – janob.

qu – yumshoq “k” tovushi. Qué – nima, quince – o’n besh

r – so’z boshida yoki bo’g’in boshida qattiq talaffuz qilinadi. Raro – kam, rico – boy.

s – aniq “s” deb o’qiladi. Casa – uy, mesa – stol.

y – odatda “y”, qachonki so’zni oxirida yoki alohida kelsa “i” deb o’qiladi. Yo – men, y – va, soy – bo’lmoq (I shaxs, birlikda)

Talaffuzning o’ziga xos xususiyatlari.

“c” va “z” ni “e” va “i” unlilaridan oldin talaffuz qilayotganda ozgina shippillash kastilla so’zlashuviga xos. Kastilla so’zlashuvi klassik ispancha deb qabul qilingan, shuning uchun biz sizga ushbu talaffuzga amal qilishni tavsiya etamiz. Lekin markaziy va janubiy Amerikada (ba’zi Ispaniya viloyatlarida) “z” va “c” ning talaffuzi “i” va “e” dan oldin o’zbekcha “s” ga o’xshab o’qiladi.

Ko’p ispaniyaliklar oxirgi “d” harfini yumshoq “ts” deb talaffuz qilishadi (bunda til oldingi tishlarga tegib turadi). Agar “d” so’zning o’rtasida kelsa ham shunday talaffuz qilishadi. Bu holatda ularni o’xshatishga harakat qiling. Esingizda tuting “madre” “mah-thray” emas, balki “mah-dray” kabi talaffuz qilinadi. Oxirgi “d” tovushi juda qattiq yoki aniq talaffuz qilinishi shart emas.

Ispaniyaliklar uchun odatda “b” va “v” ajratish yoq. Shuning uchun “vaca” – “baka” kabi eshitilishi mumkin. Lekin bu xato hisoblanmaydi. Bu bizning audio yozmalarimizda aks etilgan. Qayd etib o’tamizki, o’xshatilgan “v” talaffuzda “v” transkripsiyasiga ega.

“ll” undosh tovushi har xil talaffuz qilinishi mumkin. Bu tovushning transkripsiyasi “l’y” (yumshoq l), lekin Ispaniya va Lotin Amerikaning ba’zi viloyatlarida kuchli ichkaridan chiquvchi tovush kabi talaffuz qilinmaydi. Andaluziya va Argentinada ushbu talaffuz ko’proq yumshoq “j” tovushiga yaqinroq talaffuz qilinadi.

Urg’u belgisi va punktuatsiya

So’roq va undov belgilari iboraning boshi va oxiriga qo’yiladi. Yuqori ikki nuqta (´´) g harfidan keyin kelayotgan “u” harfining ustiga qo’yiladi: agüero.

“~” belgisi “n” harfining ustida: mañana.

“ ’ ” urg’u belgisi ispan tilida keng ishlatiladigan yagona belgi bo’lib boshqa belgilardan yuqori turadi. Urg’u belgisi hech qachon harfning talaffuzini

o'zgartirmaydi. Shuningdek ¿cuándo? va ¿dónde? so'roq olmoshlarida ishlatiladi. (qachon, qayerda va qayerga) agar ular so'roq gaplarda qatnasha: ¿Cuándo llega el buque? (kema qachon yetib keladi?), lekin ¿Sabe él cuando llega el buque? (kema qachon yetib kelishini u biladimi?) bu gap urg'u olmaydi.

O'xshash talaffuz

Birinchi uchta bobda biz har bitta yangi so'zni uning lotincha transkripsiyasi bilan berib boramiz. Hamma uchraydigan yangi so'zlar lug'atga kiritilgan. O'xshash talaffuzlarda hamma ispan tovushlari lotincha transkripsiya bilan berilgan. Agar siz biror bir so'zni talaffuz qilishda shubhalansangiz kirish qismiga yana murojat qiling va audiokassetani diqqat bilan eshiting.

O'xshash talaffuzni transkripsiyasini o'qiyotganda yodda tuting:

Th (to'q shrift bilan ajratilgan) yumshoq "ts" kabi talaffuz qilinadi, bu holda til tishlar orasida bo'ladi.

H (bosh harfli)

S har doim aniq "s" kabi o'qiladi.

Ah ispan tilida "a" tovushini bildiradi va rus tilidagi qisqa va aniq "a" harfiga o'xshaydi.

O qisqa "o", ba'zi vaqtlarda "ou" deb talaffuz qilinadi.

Ispan alifbosi

Ispan alifbosi 29 harfdan iborat va undagi "k" va "w" harflari faqatgina ispan tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarda uchraydi. Ch, Ll va Ñ harflari bilan boshlanuvchi so'zlarga e'tibor bering, ular lug'atda C, L, N harflari bilan boshlanadigan so'zlardan keyin keladi.

| | | |
|------------|-------------|-------------------|
| A ah | J 'ho-tah | R 'airr-ay |
| B bay | K kah | S 'ess-ay |
| C thay | L 'ell-ay | T tay |
| Ch chay | Ll 'ell-yay | U oo |
| D day | M 'emm-ay | V 'oo-vay |
| E ay | N 'enn-ay | W 'oo-vay-do-blav |
| F 'eff-ay | Ñ 'enn-yay | X 'ay-kiss |
| G hay | O o | Y ee-gre-'ay-gah |
| H 'oh-chay | P pay | Z 'thay-tah |
| I ee | Q koo | |

BOB I

1. Ispan tili artikllari:

Artikllar – yordamchi soʻzlar boʻlib, ular alohida maʼnoga ega emas va otlarning aniqlovchisi boʻlib keladi. Ispan tilida aniq va noaniq artikllar mavjud.

Ispan tilida hamma artikllar oʻzi bilan kelayotgan otlar bilan sonda va rodga moslashadi. (ahamiyat bering, ispan tilida otdagi rodi rus tilidagi soʻzlarning rodi bilan mos kelmasligi mumkin. “el libro” – masculino rodga taaluqli, “книга” – rus tilida femenino rodiga taaluqli.

Eslatma: oʻzbek tilida otlarning rod formasi mavjud emas.

Aniq artikllar soʻzlovchiga va tinglovchiga gap qanday predmet toʻgʻrisida ekanligi maʼlum boʻlgan hollarda otlar bilan birga ishlatiladi. Oʻzbek tilidagi ekvivalenti – “bu” (odatda ishlatilmaydi, lekin nazarda tutiladi.

| | |
|--------------------------|--|
| El (masculino, birlik) | el libro [ell ‘lee-bro] bu kitob |
| La (femenino, birlik) | la casa [lah ‘kah-sah] bu uy |
| Los (masculino, koʻplik) | los libros [los ‘lee-bros] bu kitoblar |
| Las (femenino, koʻplik) | las casas [lahs ‘kah-sahs] bu uylar |

Noaniq artikllar oʻzbek tilida qandaydir, har qanday, bitta deb tarjima qilinadi. Noaniq artikllar:

| | |
|-------------------|--|
| un (m, birlik) | un libro [oon ‘lee-bro] kitob |
| una (f, birlik) | una casa [‘oo-nah ‘kah-sah] uy |
| unos (m, koʻplik) | unos libros [‘oo-nos ‘lee-bros] kitoblar |
| unas (f, koʻplik) | unas casas [‘oo-nahs ‘kah-sahs] uylar |

E’tibor bering! Agar femenino roddagi ot -a yoki -ha bilan boshlansa, birlikda va urgʻu shularga tushsa bunday otlardan oldin masculino rod artikli qoʻyiladi.

El agua [ell ‘ah-goo’ah] – suv

El hambre [ell ‘ahm-bray] – ochlik

2. Otlar

Hamma otlar ispan tilida masculino va femenino rodga boʻlinadi. (ispan tilida sred. rod mavjud emas, lekin *lo* artikli ishlatiladi). Koʻpchilik “o” harfi bilan tugaydigan otlar masculino rodga kiradi, barcha “a”, ión, d, z harflari bilan tugaydigan otlar femenino rodga taaluqli. Bunga qaramay bu qoidalarga baʼzi istisnolar mavjud.

La mano [lah‘mah-no] (f) qoʻl, barmoq

El camión [ell kah-me-‘on] (m) yuk mashinasi

El lápiz [ell ‘lah-pith] (m) qalam

El guardia [ell goo‘ah-de-ah] (m) navbatchi

“a” harfi bilan tugaydigan, masculino rodga kiradigan bir nechta otlar mavjud (grek tilidan kirib kelgan)

El telegrama [ell tay-lay-‘grah-mah] – telegramma

El idioma [ell e-de-‘o-mah] – til

El mapa [ell mah-pah] – xarita
Boshqa har xil qo'shimchalar bilan tugaydigan otlar har xil rodga tegishli bo'ladi.

El hombre [ell 'om-bray] – kishi
La mujer [lah moo'-hainj] – ayol
La leche [lah 'lay-chay – sut
El color [ell ko-'lorr] – rang.

3. Otlarning ko'plik shakli

Unli harf bilan tugagan otdan keyin *s*, undosh bilan tugagan otdan keyin esa *es* qo'shimchasi qo'shish orqali otlarning ko'plik shakli hosil qilinadi.

Hombre (kishi) – hombres ['om-brace] (kishilar)

Mujer (ayol) – mujeres {moo-'hairr-ace] (ayollar)

Z bilan tugagan otlarning ko'plik formasida z harfining o'rniga *ces* bo'lib ketadi:

Lápiz (qalam) – lápices ['lah-pith-ace] (qalamlar)

Luz [looth] (chiroq, olov) – luces [looth-ace] (chiroqlar)

Agar ot undosh harf bilan tugab, birlikda hamda oxirida urg'u bo'lsa, ko'plik shaklini yasalganda urg'u yo'qoladi:

Camión – camiones [kah-me-'on-ace]

1-mashq

Quyidagi otlarning ko'plik formasini yasang:

- | | |
|------------------------------|-----------|
| 1. El libro | kitob |
| 2. La casa | uy |
| 3. La mujer | ayol |
| 4. El hombre | kishi |
| 5. La calle ['kah-l'yay] | ko'cha |
| 6. La flor [florr] | gul |
| 7. El jardín [harr-'deen] | bog' |
| 8. El coche ['ko-chay] | avtomobil |
| 9. La capital [kah-pe-tahl] | poytaxt |
| 10. La ciudad [the'oo-'dahd] | shahar |
| 11. La luz | chiroq |
| 12. La ley ['lay'e] | qonun |

2 – mashq

Mos keluvchi aniq artikllarni otlarning oldiga qo'ying:

- | | |
|---|--------------|
| 1. cigarillos [the-gar-'rree-l'yos] (m, ko'plik) | sigaretlar |
| 2. vino ['vee-no] (m) | vino, sharob |
| 3. mesas ['may-sahs] (f, ko'plik) | stollar |
| 4. cerveza [thairr-'vay-thah] (f) | pivo |
| 5. pez [peth] (m) | baliq |
| 6. arboles ['arr-bol-ace] (m, ko'plik) | daraxtlar |
| 7. padre ['pa=h-dray] | ota |

| | |
|---|----------|
| 8. madre [ˈmah-dray] (f) | ona |
| 9. lápiz [ˈlah-pith] (m) | qalam |
| 10..... estaciones [ess-tah-the-ˈon-ace] (f, ko'plik) | bekatlar |
| 11..... billete [beˈlˈyay-tay] (m) | chipta |
| 12..... tren [ˈtren] (m) | poyezd |

Noaniq artikllar qo'yib, mashqni takrorlang.

3-mashq

Ispan tiliga mos keluvchi artikllarga e'tibor berib, so'zlarni tarjima qiling:

1. bu kitob
2. bu stol
3. bu chiptalar
4. daraxtlar
5. pivo
6. bu mashina
7. shahar
8. sigaretalar
9. bu bog'
10. ko'cha
11. ayol
12. bu bekat

4. Kishilik olmoshlari

| Birlik shakli | | Ko'plik shakli | |
|------------------|--------|-------------------------|--------------------------|
| yo [yo] | men | nosotros [nos-o-tors] | biz (m) |
| tú [too] | sen | nosotras [nos-o-trahs] | biz (f) |
| usted [oos-ˈted] | siz | vosotros [vos-o-otros] | senlar (m) |
| él [ˈell] | u (m.) | vosotras [vos-o-trahs] | senlar (f) |
| ella [ˈell-yah] | u (j.) | ustedes [oos-ˈtay-dace] | sizlar (ko'plik, hurmat) |
| | | ellos [ˈell-yos] | ular (m) |
| | | ellas [ˈell-yahs] | ular (f) |

Do'stona munosabatni bildiruvchi *tú* va *vosotros/as* oila a'zolariga, do'stlarga, bolalarga va hayvonlarga nisbatan ishlatiladi. Hurmat ma'nosiga ega *usted* va *ustedes* qolgan insonlarga ishlatiladi, xatlar va yozuvlarda qisqartirilib *ud.* va *uds.* deb yoziladi. Bu shakllar fe'llarning 3-shaxsi bilan birga ishlatiladi.

Usted – eskirib qolgan <vuestra merced> ning qisqartirilgan shakli. Ispaniyada so'zlashuvning do'stona shakli keng tarqalganiga qaramay, begona kishilarga murojat etishda hurmat shakli ishlatiladi.

So'zlashuvda barcha kishilik olmoshlari qoidaga ko'ra, agar ikki xil ma'noni anglatmasa tushirib qoldiriladi. *Usted* va *ustedes* bundan mustasno.

5. Murojaat etish formalari

Señor [say-n''yorr] (janob), señora [say-n''yor-rah] va señorita [say-n''yor-'ree-tah] shaxs familiyasi oldida aniq artikl bilan ishlatiladi, faqatgina to'g'ridan – to'g'ri suhbatdan tashqari. Yozuvda ko'pincha qisqartirib qo'llaniladi: Sr, Sra, Srta.

| | |
|----------------------------------|---------------------------|
| El Sr. Martínez [marr-'tee-neth] | Senyor Martines |
| La Sra. Martínez | Senyora Martines |
| La Srta. Martínez | Senyorita Martines |
| Por aquí, Sr. Martínez | bu yerga, senyor Martines |

Murojaatda Don va Doña har doim ismdan oldin ishlatiladi:
Don Juan [don hoo''ahn], Doña Maria ['don-yah mah-'ree-ah]

6. “Tener” fe’li. (ega bo’lmoq)

Bu noto'g'ri (ya'ni o'zagi o'zgaruvchi) fe'l bo'lib, (uning tuslanishi umumiy qoidalarga oid bo'lmaydi, bundan keyingi boblarda ushbu qoidalar keltirib o'tiladi) ispan tilidagi eng asosiy fe'llardan biri:

Hozirgi zamonda

| | |
|-------------------------|-------------|
| tengo ['ten-go] | men egaman |
| tienes [te-'ay-nace] | sen egasan |
| tiene [te-ay-na] | u ega |
| tenemos {tay-'nay-mos} | biz egamiz |
| teneis [tay'nay-iss] | siz egasiz |
| tiene[n] [tay-'nay-nen] | ular egalar |

Tienen una hija ['ee-hah] – ularning qizi bor (to'g'ridan – to'g'ri. Ular qizga egalar)
Tenemos un coche. – mashinamiz bor.

7. Inkor formalari.

Agar siz *no* yuklamasini fe'ldan oldin qo'ysangiz, ispan tilida gapning inkor formasini hosil qilasiz.

No tengo dinero. Menda pul yo'q.
No tienen cerveza. Ularda pivo yo'q.

8. So'roq gaplar

Ispan tilida so'roq gap hosil qilish uchun fe'lni otdan oldin qo'yib, agar gap boshida kelsa:

Ud. Tienen una pluma. Sizda ruchka bor
¿tiene ud. una pluma? Sizda ruchka bormi?

9. "Tener" fe'lining frazeologik birikmalardagi o'rni.

Ko'pgina iboralarda *tener* fe'li ishlatiladi va undan keyin ot keladi. O'zbek tilidagi ekvivalenti "ot + bo'lmoq" ga to'g'ri keladi.

| | |
|---------------|---------------------|
| Tener calor | issiqni his qilmoq |
| Tener cuidado | ehtiyot bo'lmoq |
| Tener éxito | yutuqqa ega bo'lmoq |
| Tener frío | sovqotmoq |
| Tener hambre | och bo'lmoq |
| Tener miedo | qo'rqmoq |
| Tener razón | haq bo'lmoq |
| Tener sed | chanqamoq |
| Tener sueño | uxlab qolmoq |
| Tener suerte | omadli bo'lmoq |

Qachonki *tener que* dan so'ng infinitiv kelsa, bu konstruksiya biror narsa qilish kerakligini bildiradi:

Tengo que salir. Chiqishim kerak

Tenemos que ver la iglesia. Cherkovni ko'rishimiz kerak.

Lug'at

| | |
|---------------------------|-------------|
| El café [kah-'fay] | kofe, qahva |
| Trabajar [trah-bah-'harr] | ishlamoq |
| Todo ['to-do] | hamma |
| Salir [sah-'leerr] | chiqmoq |
| El hijo ['ee-ho] | o'g'il |

4-mashq.

Ispan tiliga tarjima qiling:

1. Ularning o'g'li bor.
2. Bizda qahva yo'q.
3. Bu kishi qo'rqqan.
4. Men ishlashim kerak
5. Sening qalaming bormi?
6. Ular chanqamayaptilar.
7. Sizda hamma narsa bormi?
8. Menga issiq.
9. Chiqishimiz kerak
10. Uning o'g'li bor.

Trening 1.

Ushbu va keyingi treninglarda javobga ega bo'lgan namunalar beriladi. Ushbu namunani mashqni bajarish uchun ishlatting. Shunday qilib ko'rsatilgan misolga ko'ra ushbu treningda javob berish uchun I -shaxs birlik va ko'plikdagi fe'llarini ishlatish kerak.

Misol:

¿Tiene usted una pluma? Sizda ruchka bormi?

No, no tengo una pluma. Yo'q, menda ruchka yo'q.

¿Tienen ustedes un lápiz? Sizlarda qalam bormi?

No, no tenemos un lápiz. Yo'q, bizda qalam yo'q.

¿Tiene ud. hambre?

¿Tienen uds. cerveza?

¿Tiene ud. sed?

¿Tienen uds. calor?

¿Tiene ud. frío?

¿Tienen uds. los libros?

¿Tiene ud. cigarillos?

¿Tienen uds. los billetes?

Dialoglar**En el bar****Barda**

Señor: ¿Tiene usted una cerveza muy fría? Tengo sed.

Sizda juda sovuq pivo bormi? Men ichishni xohlayman.

Señora: Sí, señor, aquí tiene.

Ha, sen'or, mana ular.

Señor: ¿Cuánto es?

Necha pul turadi?

Señora: Cincuenta pesetas,

Ellik peso.

Señor: Sólo tengo un billete de mil. ¿Tiene usted cambio?

Menda faqatgina bir ming pesolik chek bor. Sizda qaytim bormi?

Señora: Sí, señor.

Ha, senor

Señor: Gracias, adiós.

Rahmat, ko'rishguncha xayr.

Suhbatdan parcha

Carmen y Luis tienen un piso en la ciudad y un casa en el campo.

Karmen va Luisning shaharda kvartiralari va shahar tashqarisida uylari bor.

Tiene la casa un jardín grande?

Bu uyning bog'i kattami?

Si, muy grande y muy bonito, con árboles y flores. También tienen un perro y un gato.

Ha, juda katta va chiroyli, daraxtlari va gullari bilan. Ularda yana kuchuk va mushuk ham bor.

Qo'shimcha matn.

Los tres Viejitos

Una mujer salió de su casa y vio a tres viejos de largas barbas sentados frente a su jardín. Ella no los conocía y les dijo:

- No creo conocerlos, pero deben tener hambre. Por favor, entren a mi casa para que coman algo.

Ellos preguntaron: - ¿Está el hombre de la casa?

No -respondió ella-, no está.

Entonces no podemos entrar -dijeron ellos.

Al atardecer, cuando el marido llegó, ella le contó lo sucedido.

-¡Entonces díles que ya llegué e invítalos a pasar!

La mujer salió a invitar a los hombres a pasar a su casa.

- No podemos entrar a una casa los tres juntos -explicaron los viejitos.

- ¿Por qué? -quiso saber ella.

Uno de los hombres apuntó hacia otro de sus amigos y explicó:

- Su nombre es Riqueza.

Luego indicó hacia el otro: - Su nombre es Éxito y yo me llamo Amor. Ahora ve adentro y decidan con tu marido a cuál de nosotros tres ustedes desean invitar a vuestra casa.

La mujer entró a su casa y le contó a su marido lo que ellos le dijeron. El hombre se puso feliz:

- ¡Qué bueno! Y ya que así es el asunto, entonces invitemos a Riqueza, dejemos que entre y llene nuestra casa de riqueza. Su esposa no estuvo de acuerdo:

- Querido, ¿por qué no invitamos a Éxito?

La hija del matrimonio estaba escuchando desde la otra esquina de la casa y vino corriendo con una idea:

- ¿No sería mejor invitar a Amor? Nuestro hogar entonces estaría lleno de amor.

- Hagamos caso del consejo de nuestra hija -dijo el esposo a su mujer. Ve afuera e invita a Amor a que sea nuestro huésped.

La esposa salió afuera y les preguntó a los tres viejos:

- ¿Cuál de ustedes es Amor? Por favor que venga para que sea nuestro invitado.

Amor se puso de pie y comenzó a caminar hacia la casa. Los otros dos también se levantaron y lo siguieron. Sorprendida, la dama les preguntó a Riqueza y Éxito:

- Yo sólo invité a Amor, ¿por qué ustedes también vienen?

Los viejos respondieron juntos:

- Si hubieras invitado a Riqueza o Éxito, los otros dos habrían permanecido afuera, pero ya que invitaste a Amor, donde sea que él vaya, nosotros vamos con él.....

Donde quiera que hay amor, hay también riqueza y éxito.

Bob II.

10. Artikllarning qoʻshilishi.

Agar "a" va "de" (dan, ning) dan keyin *el* aniq artikli kelsa, u holda qoʻshilish boʻlib *al* va *del* boʻladi.

Al castillo - qalʼaga

Del jardín - bogʻdan

11. Predloglar

Qarashlilik xossasi ispan tilida *de* yuklamasi orqali yasaladi:

El padre de **Juán**. Xuanning otasi

El paraguas de la mujer. Ayollarning soyaboni.

5-mashq.

Quyidagi soʻz birikmalarini yuqorida koʻrsatilgan misollardan foydalanib tarjima qiling:

1. Cherkovga
2. Tildan
3. Mashinaga
4. Stolga
5. Daraxtlardan
6. Uyga
7. Kishidan
8. Shahardan
9. Koʻchaga
10. Vinodan
11. Politsiyachiga
12. Bekatdan

12. Sifat

Gapda sifat ot bilan sonda va rodda moslashib, otdan keyin keladi. –o harfi bilan tugagan masculino roddga tegishli sifat –a harfi bilan oʻzgarib femenino roddi yasaladi. s qoʻshimchasini qoʻshish orqali koʻplik formasi yasaladi:

El coche blanco bu oq mashina

La casa blanca bu oq uy

Los coches blancos bular oq mashinalar

Las casas blancas bular oq uylar

“e” harfi hamda undosh harfi bilan tugagan sifatlar masculino va femenino rodda bir xil formaga ega. Sifatning koʻplik formasini “e” harfiga –s va undosh harf bilan tugagan sifatlarga –es qoʻshimchasi qoʻshish orqali yasaladi:

| | |
|-------------------------|------------------------|
| La pared verde. | Bu yashil devor |
| El lápiz verde | bu yashil qalam |
| Las paredes verdes | bular yashil devorlar |
| Los lápices verdes | bular yashil qalamlar. |
| Un ejercicio fácil | oson mashq |
| Una lección fácil | oddiy dars |
| Unos ejercicios fáciles | ba'zi oson mashqlar |
| Unas lecciones fáciles | ba'zi oson darslar. |

Bu qoidaga bo'ysunmaydi:

* millatni aniqlab kelganda:

| | |
|----------|--------|
| Inglés | ingliz |
| Inglésa | ingliz |
| Español | ispan |
| Española | ispan |

- ba'zi -n va -or bilan tugaydigan sifatlar:

| | |
|-------------------------------------|-------------|
| holgazán [ol-gah-'thahn] | dangasa |
| holgazána [ol-gah-'thahn- ah] | dangasa |
| trabajador [trah-bah=hah-'dor] | mehnatsevar |
| trabajadora [trah-bah-hah-'dor-rah] | mehnatsevar |

Lug'at

| | |
|-----------------------------------|-----------------|
| el periódico [pay-rre-'o-de-ko] | gazeta |
| la revista [rrayh-'viss-tah] | jurnal |
| interesante [in-tay-ress-'an-tay] | qiziqarli |
| encantador [en-kahn-tah-'dorr] | jozibali |
| bueno [boo''ay-no] | yaxshi |
| útil ['oo-til] | foydali |
| barato [bah-'rah-to] | arzon |
| largo ['lar-go] | uzun |
| alto ['ahl-to] | baland |
| alemán [ah-lay-'mahn] | nemischa, nemis |

6-mashq.

Otlar bilan sifatlarning moslashishi uchun kerakli joylarda sifatlarning soni va rodini o'zgartiring.

1. Unos hombres bueno.
2. Una mujer encantador.
3. Unos libros útil.
4. Unas flores blanco.
5. Un coche barato.

6. Una calle largo
7. Unos árboles alto.
8. Unas ciudades interesante.
9. Un periódico inglés.
10. Una revista alemán.

13. “Ser” va “Estar” fe’llari

Ispan tilida grammatik ko’rinishlarda ishlatiladigan “ser” va “estar” ko’makchi fe’llarini farqlay olish muhim, lekin bu o’zbek tiliga odatda tarjima qilinmaydi.

Hozirgi zamon:

| | | |
|-------|---------|------------------------|
| ser | estar | |
| soy | estoy | men borman |
| eres | estás | sen borsan |
| es | está | u, siz borsiz |
| somos | estamos | biz bormiz |
| sois | estáis | siz borsiz |
| son | están | ular, sizlar borsizlar |

14. “Ser” fe’lining ishlatilishi

Ispan tilida “ser” fe’li ajralmas xarakteristika va doimiy holatni ifodalashda ishlatiladi:

- shaxsni: **soy** Carmen. Men Karmenman
- qarashlilik: el perro **es** de Juán. Bu kuchuk Xuanniki.
- kelib chiqishi: mis amigos **son** de Madrid. Mening do’stlarim Madriddan.
- millatni: **somos** ingleses. Biz inglizmiz
- mashg’ulot turi: el padre de María **es** arquitecto. Mariyaning otasi arxitektor.
- xom – ashyo: la mesa **es** de madera. Bu stol taxtadan
- ko’rinishni ifodalaganda: Carlos **es** muy alto. Karlos juda baland.
- vaqtni ifodalaganda: **son** las cinco - Hozir soat 5; hoy **es** lunes - bugun dushanba
- shaxssiz gaplarda: **es** mejor esperar - Kutgan yaxshiroq; **es** difícil aprender – o’qish qiyin.

Yana “ser” majhul nisbatni ifodalash uchun o’tgan zamon sifatdoshi bilan ishlatiladi (.. bet)

El ladrón es apresado por la policía – o’g’ri politsiya tomonidan tutildi.

15. “Estar” fe’lining ishlatilishi

“estar” fe’li quyidagi holatlarda ishlatiladi:

- vaqtinchali holat va sharoitda: Pedro está enfermo. Pedro kasal
- joylashuv (vaqtincha va doimiy): Carmen está en salón. Karmen hozir mehmonxonada.

Valencia está en España. Valensiya Ispaniyada joylashgan.

Estar fe'li yana hozirgi zamon sifatdoshi bilan hozirgi vaqtdagi bo'layotgan ish – harakatni ifodalashda ishlatiladi:

Los niños están jugando en el jardín. Bolalar bog'da o'ynashyapti.

Estar + para yuklamasi biror narsa qilishga tayyorligini bildiradi.

El tren está para llegar. Poezd jo'nashga tayyor.

7-mashq.

Quyidagi gaplarni “ser” yoki “estar” fe'lini tuslagan shaklda qo'yib to'ldiring:

- | | |
|---------------------------------------|-------------------------------|
| 1. Las lecciones difíciles | Bu darslar qiyin. |
| 2. El café frío. | Bu qahva sovuq. |
| 3. Las chicas alemanas. | Bu qizchalar nemis. |
| 4. Jaime muy inteligente. | Xaime juda aqlli. |
| 5. Los libros sobre la mesa. | Kitoblar stol ustida turibdi. |
| 6. Ana triste. | Ana xafa. |
| 7. La mujer de Luis secretaria. | Luisning xotini kotiba. |
| 8. La casa pequeña. | Bu uy kichkina |
| 9. El coche no en el garaje. | Bu mashina garajda emas. |
| 10. Yo contento con el hotel. | Mehmoxonadan mamnunman. |

Lug'at.

| | |
|-------------------------------|--------------|
| italiano [ee-tah-lee-'ah-no] | italiyancha |
| la manzana [mahn-'thee-nah] | olma |
| en [en] | da (yuklama) |
| la cocina [ko-'thee-nah] | oshxona |
| el autobús [ah'oo-to-'booss] | avtobus |
| allí [ah-'l'yee] | u yerda |
| la capital [kah-pe-'tah] | poytaxt |
| España [ess-'pahn-yah] | Ispaniya |
| la colina [ko-'lee-nah] | qir, tepalik |
| peligroso [pay-le-'gro-so] | xavfli |
| fumar [foo-'mahr] | chekmoq |
| demasiado [day-mah-se-'ah-do] | o'ta |
| dulce ['dool-thay] | shirin |
| mañana [mah-'n'yah-nah] | ertaga |
| domingo [do-'meen-go] | yakshanba |
| la playa ['plah-yah] | plyaj |

8-mashq

Ispan tiliga tarjima qiling.

1. U italiyalik.
2. Olmalar oshxonada turibdi.
3. Bu avtobus u yerda turibdi
4. Madrid Ispaniyaning poytaxti.

5. Bu qiz baland bo'yli.
6. Bu uy mana bu teplalikda joylashgan.
7. Chekish xavfli.
8. Bu qahva juda (o'ta) issiq.
9. Ertaga yakshanba
10. Ular plyajda.

Dialoglar.

Xuan do'stlarinikiga mehmonga keldi va ularning qizi bilan gaplashyapti.

Se iluminó el semblante del Rey con una gran sonrisa y ordenó que le dieran cien monedas de oro.

Cuando éste salía del Palacio, uno de los cortesanos le dijo admirado:

- ¡No es posible! La interpretación que habéis hecho de los sueños es la misma que el primer Sabio. No entiendo porque al primero le pagó con cien latigazos y a ti con cien monedas de oro.

- Recuerda bien amigo mío - respondió el segundo Sabio - que todo depende de la forma en el decir... uno de los grandes desafíos de la humanidad es aprender a comunicarse.

De la comunicación depende, muchas veces, la felicidad o la desgracia, la paz o la guerra. Que la verdad debe ser dicha en cualquier situación, de esto no cabe duda, mas la forma con que debe ser comunicada es lo que provoca en algunos casos, grandes problemas.

La verdad puede compararse con una piedra preciosa. Si la lanzamos contra el rostro de alguien, puede herir, pero si la envolvemos en un delicado embalaje y la ofrecemos con ternura, ciertamente será aceptada con agrado.

Bob III.

16. Ko'rsatish sifatlari.

| masculino | | femenino | |
|---|--------------------------------|---|--------------------------------|
| Este ['es-tay] Ese ['ay-say] Aquel [ah-'kel] | Bu U, o'sha Anavi, unisi | Esta ['es-tah] Esa ['ay-say] Aquella [ah-'kell-yah] | Bu U, o'sha Anavi, unisi |
| Estos ['estos] Esos ['ay-sos] Aquellos [ah-'kell-yos] | Bular Ular Anavilar | Estas ['es-tahs] Esas ['ay-sahs] Aquellas [ah-'kell-yahs] | Bular Ular anavilar |

Ko'rsatish sifatlari ot, son va rodda moslashib, birga keladi.

Este coche bu mashina
Esa iglesia o'sha chekov
Aquellos niños anavi bolalar

Lug'at

caro ['kah-ro] qimmat
fuerte [foo''aie-tay] kuchli
muy ['moo'e] juda
viejo [ve-'ay-ho] qari, eski
el amigo [ah-'mee-go] do'st
ocupado [o-koo-'pah-do] band

libre ['lee-bray] ozod, bo'sh
el ascensor [ahs-then-'sor] lift
lleno ['l'yay-no] to'la
la uva ['oo-vah] uzum
agrio ['ah-gre-o] nordon

9-mashq

Ispan tiliga tarjima qiling.

1. Bu mashina qimmat.
2. U sigaretlar kuchli.
3. O'sha cherkov juda eski.
4. Bu do'stlar Malagadan.
5. Bu stol band.
6. Anavi kishi bo'sh.
7. Bu lift to'la.

8. Bu uzumlar nordon.
9. Anavi yerdagi kitoblar qiziqarli.
10. Anavi yerdagi plyaj juda chiroyli.

17. Ko'rsatish olmoshlari

Ko'rsatish olmoshlarining yozilishi ko'rsatish sifatlariniki bilan bir xil, lekin ko'rsatish olmoshlarining urg'usi bo'ladi.

Ko'rsatish olmoshlari otlar bilan rodde va sonda moslashadi. Masalan:

No es este libro, es aquél
 Bu kitob emas, unisi
 Este coche es blanco, aquél es rojo
 Bu mashina oq, unisi qizil

Kishilik olmoshlarining o'rta rodi mavjud: bular *esto*, *eso* va *aquello*. Odatda rodi aniq bo'lmagan predmetlarga nisbatan ishlatiladi.

¿Qué es esto? Nima bu?
 Eso no es correcto. Bu noto'g'ri

Bu olmoshlarning ko'plik formasi mavjud emas.

Lug'at

| | |
|-----------------------------------|----------------|
| La maleta [mah-'lay-tay] | chemodan |
| La galleta [gahl-'yay-tah] | quruq pechenye |
| El pan [pahn] | non |
| El abrigo [ah-'bree-go] | palto |
| El zapato [thah-'pah-to] | tufli |
| El vino ['vec-no] | vino |
| La habitación [ah-be-tah-the-'on] | xona |

10-mashq.

Qavs ichiga ko'rsatish olmoshlari va sifatlarning to'g'ri formasini qo'ying.

1. No son (bular) libros, son (o'shalar)
2. No es (u) maleta, es (anavinisi)
3. No son (bular) galletas, son (ular)
4. No es (u) pan, es (bu)
5. No es (bu) abrigo, es (anavinisi)
6. No son (ular) zapatos, son (bular)
7. No es (bu) vino, es (anavi)
8. No es (anavi) periódico, es (u)
9. No son (ular) habitaciones, son (anavilar)
10. No es (bu) coche, es (anavi yerdagi)

10-mashq.

A) Relaciona los adjetivos y pronombres demostrativos con los adverbios de lugar *aquí*, *ahí*, *allí*.

Ejemplo: *estos* _ aquí

Estos, esos, estas, aquellas, ese, aquel, este, aquellos, aquello, eso, esa, esta.

- **Aquí:**
- **Ahí:**
- **Allí:**

10-mashq.

B) Señala el adjetivo demostrativo correspondiente.

Ejemplo: (Aquí) camisas.

- (Aquí) libro.
(Aquí) huevos.
(Aquí) panadería.
(Ahí) manzanas.
(Ahí) pescado.
(Ahí) carne.
(Ahí) tomates.
(Allí) melón.
(Allí) cerveza.
(Allí) calamares.
(Allí) tartas.

18. To'g'ri fe'llar.

Infinitiv (noaniq forma) fe'llari ispan tilida faqatgina quyidagi qo'shimchalar bilan tugaydi:

-ar; -er; -ir (hablar, comer, vivir). Fe'llar tuslanganda ularning infinitiv formasi quyidagi qoidalar asosida o'zgaradi:

Hozirgi zamon.

| hablar | comer | vivir |
|---------------|--------------|--------------|
| hablo | como | vivo |
| hablas | comes | vives |
| habla | come | vive |
| hablamos | comemos | vivimos |
| habláis | coméis | vivís |
| hablan | comen | viven |

To'g'ri fe'llarning o'zagi o'zgarmaydi.

- | | |
|-----------------------|-------------------------------------|
| No hablo ruso. | Rus tilida gapirmayman. |
| ¿Habla ud. español? | Ispan tilida gapirasizmi? |
| Come mucho pan. | U ko'p non yeydi. |
| No comen en el hotel. | Mehmonxonada ular ovqatlanmaydilar. |
| Viven uds. aquí? | Siz shu yerda yashaysizmi? |
| Vivo en Londres. | Men Londonda yashayman. |

Lug'at

comprar [kom-'prahr]
beber [bay-'bair]
escribir [ess-kre-'beer]
fumar [foo-'mahrr]
estudiar [ess-too-de-'ahrr]
aprender [ah-pren-'dairr]
subir [soo-'beer]

sotib olmoq
ichmoq
yozmoq
chekmoq
o'qimoq
o'rganmoq
ko'tarilmoq

11-mashq.

Tarjima qiling:

1. Men sotib olyapman
2. U chekyapti
3. Siz ichyapsiz
4. Biz yozyapmiz
5. Ular o'rganyaptilar
6. Men o'qiyapman
7. Siz (do'st, ko'plik) gapiryapsiz
8. U yeyapti
9. Biz yashayapmiz
10. Ular ko'tarilishyapti
11. U ichyapti

12-mashq.

Tarjima qiling:

1. U gazeta sotib olyapti.
2. U pivo ichyaptimi?
3. Pedro Barselonada yashaydi.
4. Men hikoyachalar yozyapman.
5. Sizlar ingliz tilini o'rganyapsizmi?
6. Bu bolalar ispan tilini o'qiyadi.
7. U juda ko'p yeydi.
8. Biz tepalikka ko'tarilyapmiz.
9. Men inglizcha gapiryapman.
10. Ular arzon sigaret chekyaptilar.

19. Hozirgi zamon sifatdoshi

Hozirgi zamon sifatdoshi to'g'ri fe'llarning infinitiv qismi *-ar ni -ando va -er, -ir ni -iendo* ga o'zgartiriladi. Masalan:

Hablar – hablando

Comer – comiendo

Vivir – viviendo

Hozirgi zamon sifatdoshi ish harakatning davomligini ifodalash uchun hozirgi zamon *estar* fe'li bilan birga ishlatiladi. (men gapiryapman; men yeyapman; men yashayapman)

Hozirgi davomli zamon

| hablar | comer | vivir |
|------------------|------------------|------------------|
| estoy hablando | estoy comiendo | estoy viviendo |
| estás hablando | estás comiendo | estás viviendo |
| está hablando | está comiendo | está viviendo |
| estamos hablando | estamos comiendo | estamos viviendo |
| estáis hablando | estáis comiendo | estáis viviendo |
| están hablando | están comiendo | están viviendo |

Ispan tilida bu zamon odatda, gapirilyotgan vaqtda ish'harakatni tasvirlashda ishlatiladi.

Ramón está bebiendo vino. Ramon vino ichyapti.

El gato está subiendo al árbol. Mushuk daraxtga chiqyapti

Estoy aprendiendo francés. Men fransuz tilini o'rganyapman.

20. So'roq olmoshlari.

Nima? ¿Qué?
Kim? Kimlar? ¿Quién? ¿Quiénes?
Qaysi? Qanday? ¿Cuál? ¿Cuáles?

| | |
|--------------------------------------|---|
| ¿Qué come ud.? | nima yeyapsiz? |
| ¿Quién es ud.? | kimsiz? |
| ¿De quién es esta pluma? | Bu ruchka kimniki? |
| ¿Cuál de estos trenes va a Valencia? | Bu poezdlardan qaysi biri Valensiyaga boradi? |
| ¿Cuál es su nombre? | Sening isming qanday? |
| ¿Cuáles cuadros te gustan? | Qaysi rasmlar senga yoqadi? |
| ¿Qué? | ba'zan sifat vazifasida kelishi mumkin. |
| ¿Qué libros desa ud.? | Qanday kitoblar xohlaysiz? |

21. Nisbiy olmoshlar.

a) que = qaysiki, o'sha
La chica que lee el periódico
Qizcha, qaysiki gazeta o'qiyotgan
El coche que conduce. U, haydayotgan mashina.

b) quien, quienes = qaysiki, kimki
La chica con quien hablas. Sen gaplashayotgan qiz.
Los niños quienes juegan en el jardín son nuestros vecinos. Bog'da o'ynayotgan bolalar bizning qo'shnilarimiz.

v) *el que, la que, los que, las que* va *el cual, la cual, los cuales, las cuales* formalari shaxslarga va predmetlarga nisbatan ishlatilishi mumkin, odatda, "kim bo'lib" va "qaysiki" sifatida tarjima qilinadi.

La mujer con la que está hablando.
Qaysiki u bilan gaplashayotgan ayol
El autobús en el que viajo.
Qaysiki men sayohat qilayotgan avtobus.
Los amigos a los cuales escribo.
2) "qaysiki", "kimki" ispan tiliga konstuktsiya orqali yasaldi.
Ser + (olmosh yoki ot) + (quien, quienes)
Es él quien tiene la culpa
Bu o'sha , qaysiki aybdor.
Es María quien tiene que escribir.
Yozish shart bo'lgan odam , bu Mariya.

d) lo que = "nima", "qaysi" (то, что) bu kontekstda "nima" ergash gapga tegishli.
Todo lo que dices es correcto. Hamma aytayotgan gaplaring to'g'ri.
No sabe lo que comprar. U nima sotib olishni bilmayapti.

E'tibor bergan bo'langiz ispan tilida hech qachon nisbiy olmoshlar tushirib qoldirilmaydi.

El hombre que deseo ver. M en ko'rishni xohlagan kishi.
El libro que lee. U o'qiyotgan kitob.

Lug'at

| | |
|----------------|------------|
| el pueblo | qishloq |
| la tienda | magazin |
| leer (leyendo) | o'qimoq |
| el médico | shifokor |
| la carta | xat |
| verde | yashil |
| la puerta | eshik |
| la pluma | ruchka |
| con | bilan |
| el número | son, raqam |

13-mashq.

Ispan tiliga tarjima qiling:

1. Qaysiki biz yashaydigan qishloq.
2. Magazinda ishlaydigan ayol.
3. O'qishim kerak bo'lgan kitob.
4. Biz gapirayotgan shahar.
5. Bu Pedro qaysiki shifokor.
6. Bu xatlar kimniki?
7. U qaysi jurnalni sotib olyapti?
8. Yashil eshigi bor uy.
9. Men yozayotgan ruchka.
10. Qaysi raqam?

Trening 2.

¿Son ud. ingleses? Siz inglizmisiz?
Sí, somos ingleses. Ha, bizlar inglizmiz.
¿Es ud. inglés? Siz inglizmisiz?
Sí, soy inglés. Ha, men inglizman.

¿Beben uds. cerveza?
¿Come ud. pan?
¿Viven uds. en Londres?
